

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

bo‘ladi. Badiiy uslubni vujudga keltiruvchi muhim vositalardan biri yozuvchining so‘z ustida ishlashi, til vositalaridan nutq jarayonida mahorat bilan foydalanishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Karimov S. O‘zbek tilining badiiy stili-Samarqand:Zarafshon,1992.-B.26.
- 2.Murod Muhammad Do‘st. “Galatepaga qaytish yohud saodatmand G‘aybarov rivoyati”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2009.
- 3.Murod Muhammad Do‘st. “Lolazor”. –Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
- 4.Qo‘chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1976. – B. 27.
- 5.Vasilyeva A.N. Xudojestvennaya rech. – Moskva, Russkiy yazik, 1983, s. 52.
- 6.Yo‘ldoshev M. Cho‘lpon so‘zining sirlari. – Toshkent: Ma‘naviyat,2002. –B. 16.
- 7.Yo‘ldoshev B. Badiiy asar tili va uslubini o‘rganish. O‘zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari. – Samarqand, 1980. – B. 49-50.
- 8.Shmelev D. N. Slova i obraz. – M.: Nauka, 1964, S. 38.

E‘TIBORNING OG‘IRLANISHI

Sohiba Tohirova

Zamonaviy insonning ichki boshlig‘i va uni to‘ldirish yo‘llari

Ko‘zingiz ochilgan zahoti qo‘lingiz telefonga borayaptimi?

Quloqlaringiz novbatdagi bildirishnomani “ding”i eshitiladimi?

O‘zingiz sezmasdan, kuningiz boshqalarning hayotini kuzatish ,izohlarga javob berish ,tasodifiy videolarni tomosha qilish bilan boshlanadimi?

Agar bu savollarga javobingiz “ha” bo‘lsa – siz yolgiz emassiz .

Biz zamonaviy insonlar -e‘tibor asrining qurbonlarimiz .

Diqqatimiz qimmatbaho tanga bo‘lsa ,bugun uni kim ko‘proq ,tezroq o‘girlasa, o‘sha yutadi .Ammo bu yutuq emas .Bu -yoqotishdir .E‘tiborni yo‘qotish -o‘zini yo‘qotishdir .Va aynan mana shu holat – zamonaviy insonni ich -ichini yemirmoqda

E‘TIBOR -RUHIMIZNIG TOMIRI

E‘tibor bu – ko‘rinmaydigan kuch.U bizni asosiy ishga yo‘naltiradi va bog‘laydi.Agar biz uni tarqatib yuborsak ,o‘zimiz ham tarqalib ketamiz.

Tasavvur qilib ko‘ring,kaftingizda biz hovuch suv bor va sizning maqsadingiz uni to‘kmaslik. shu vaqta siz e‘tiboringizni boshqa narsalarga yo‘naltirsangiz ,suv to‘kilgani kabi sizning hayotdagi maqsadingizdan sizni chalg‘itadigan keraksiz axborotlar ham huddi shunday sizni maqsadingizdan chalg‘itadi.

E‘tiborimizni qanday qilib og‘irlashmoqda?

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Bizni chalg’itadigan Texnologik qurollar

Har bir bildirishnoma – bu sizning ruhiyatingizga qaratilgan o’q. Chunki bu ruhni sindiradi va bu qanday yuz beradi degan savolingizga, bu moqalani oxirigacha o’qisangiz, aminmanki topa olasiz. Siz bu bildirishnomalarga e’tibor berganingiz sari ,ular sizni o’z domiga tortib boshlaydi va bu kuchayadi .Eng qizig’i sizga qaraganda ular sizni yaxshi biladi.Nima sizni qiziqtiradi ,nima sizni bezovta qiladi ,nima sizni to’xtatib bo’lmas darajada sizni ekran oldida ushlab turadi.Bu o’z-o’zidan ko’rinib turibiki siz bu axborot texnologiyalariga ko’p vaqt sarflayotganingizni bildiradi.

Tezlik illuziyasi

Biz aslida vaqt bilan poygada yuguryapmiz.Har bir daqiqada samarali bo’lishi kerak.har bir lahza o’zingiz va jamiyat uchun foydali bo’lishi kerak.Amma bu yugurishning oxiri yo’q.E’tiborimiz doim keyingi vazifaga sakrab turadi chunki ,siz bir ishni oxirigacha qilgingiz kelmasa, tezlik bilan smartfoningizni qo’lingizga olasiz.Va biz aslida yashamayapmiz - shunchaki “yetishishga “ urunyapmiz.

Axborot to’foni

Har kuni ko’proq axborot iste’mol qilasiz,lekin kamroq fikrlaysiz .Har kuni ko’proq bilasiz lekin bu sizga ichingizga kamroq tinchlik olib keladi .Chunki bu bilimlar ongini to’ldiradi ,qalbni emas .Siz qalbni faqat yaxshi niyat va yaxshi amallar bilan to’ldira olasiz

Ichki bo’shliq :Qorong’ulikdagi tashrif

Bu bo’shliqni so’z bilan ta’riflab bo’lmaydi .Bu -yutqazilgan biz narsa .O’zligingiz.

Bu -sokin ammo juda og’ir sukunat .Qalbingizda “bir narsa yetishmayapti “ degan faqat uni o’zingiz eshita oladigan his bor .Lekin nimani yo’qotganingizni tushuna olmaysiz .O’zingizdan uzoqlashganday bo’lasiz .Hayotni tevaragingizda ko’rasiz ammo uni qalbingiz bilan his eta olmaysiz

Real misol :Dilshodning O’griqli uyg’onishi

Dilshid 29 yoshli IT mutaxassisi .U aql bilan boy ammo uning qalbi och.Har kuni kompyuter qarshisida ishlaydi ,kechqurun esa ijtimoiy tarmoq titkilaydi.U bir kun to’xtab atrofga nazar soldi.Atrof jim edi lekin uning ichida bir ovoz bor edi . Va bu –“Men aslida yashayapmanmi yoki majudmanmi?”

Kitob ochdi- 3 betdan nari o’tolmadi.Suhbatga qo’shildi lekin chalg’ib ketdi .Qalbi charchagan ruhidagi zahiralar tugagan edi.Bu ko’pchilikning hikoyasi.Faqat ular bu haqda jim Yechim: E’tiborni qaratish -O’zini qayta topishdir.

Har kuni shunday reja tuzunki bu sizni smartfonlardan uzoqlashtirsin va yana bir usuli siz haftasiga 6-7 soatni ekranlarsiz , bildirishnomalarsiz o’tkazing

Balki ilk daqiqalaringizda o’zingizi yoqotgandek his qilarsiz .Bu yaxshi .Chunki siz shu yo’qotish ichida siz o’zingizni topasiz.

E’TIBOR MEDITATSIYASI

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Qushlar ovozini tinglang .Yaproqlar silkinishi kuzating. Bu daqiqalarda siz oddiy inson emassiz siz ung'onayotgan insonsiz.

Qalbgga savol bering “Men hozir qandayman?”

Har kuni bu so'zlarni o'zingizga bering va javob topishga intiling.Bu savolga javob yozsangiz yaxshiroq bo'ladi chunki bu sizning yozayotgan javobingiz qalbingizni davolaydi.

Yuzma-yuz mehr

Chin dildan suhbatlashing.Ko'zlaringa qarab tinglang.Suhbat davomimda albatta telefoningizni chetga suring, chunki bu vaziyatdan foydalanolmay qalasiz.Insoniny yuzma-yuz aloqa- bu qalbimizni to'ldiruvchi eng samimiy vitamin hisoblanadi .

Boshqalarning hayotini kuzatish ruhiyatga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Bu qanday bo'ladi?.Siz boshqa mashhur insonlarning hayotini kuzatar ekansiz, bunda u mashhur insonlar o'zining eng yaxshi kunlarini qayergadir borganini yoki nimadir sotib olganini ko'rsatadi.Endi sizda noshukrlik paydo bo'ladi. Shuning uchun ruhiyatingda bo'shliq paydo bo'ladi.Asilda siz bilmaydizki,u insonlarnig ham yomon kunlari bo'lgan, ular faqat sizga yaxshi holatlarini ko'rsatadilar .Endi bunga yechim shukr qilish bo'ladi.Bunda siz har kuni shukr qilib, daftarga yozib borsangiz bo'ladi .shunda anglab yetasizki biz shukr qilib tugata olmaymiz va keyin buncha ne'matlar borligini ko'rib ,hayotingizdan rozi bo'lasiz va bu judayam quvonarli holat

Xulosa qilib aytganda :E'tibor inson ruhing so'nggi qal'asi

Bugun bizni o'zligimizdan ayirayotgan urush bor .Bu urushda qurollar yoq lekin qurbonlar juda ko'p.

Lekin hali kech emas , negaki siz bu satrlarni o'qib shu yergacha kelgan bo'lsangiz unutmangki siz bu yo'lda birinchi qadamingizni tashladingiz siz bu satrlarni o'qish davomida fikrladingiz, agar siz bu satrlarni o'qimaganingizda fikrlarmidingiz? Alabatta ,yo'q.

Bu satrlarni oqigan bo'lsangiz albatta qo'ingizdan keladi ,chunki agar sizni bu **E'TIBORSIZLIK**DAN qutultirishni xohlagan, sizni yo'qdan bor qilgan zot izni ila o'qidingiz, endi bu **E'TIBORSIZLIK**DAN qutulishni ham uddalaysiz.

E'tibor bu faqat diqqat emas. bu bizning eng go'zal insoniylik tuyg'ularimizning boshlanishi.

ADABIYOTNING HAYOTIMIZDAGI O'RNI: KAZI NAZRUL ISLOM IJODI MISOLIDA

Aminova O'g'iloy Xolmurod qizi

*2008-yil 15-oktabrda Qoraqalpog'iston respublikasi
To'rtko'l tumanidagi Yoshlik mahallasida tavallud topgan.*